O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIM TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH

Tojiboyeva Shahnozabonu
Turg’unboyeva Fotima

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, maqsad va vazifalari tahlil qilingan. Unda ta’lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarni joriy etish, pedagog kadrlar malakasini rivojlantirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maktab infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yosh avlodning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati ochib berilgan. Maqola natijasida xalq ta’limi tizimini takomillashtirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Ka’lit so‘zlar: xalq ta’limi, ta’lim tizimi, 2030-yil konsepsiyasi, ta’lim islohotlari, pedagog kadrlar, ta’lim sifati, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim, xalqaro standartlar, maktab infratuzilmasi, yoshlar tarbiyasi, zamonaviy ta’lim, PISA, kompetensiyaviy yondashuv, ma’naviy tarbiya.

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДО 2030 ГОДА

Аннотация: В данной статы анализируются основные направления, цели и задачи развития системы государственного образования Республики Узбекистан до 2030 года. Рассматриваются вопросы повышения качества образования, внедрения международных стандартов, развития квалификации педагогического персонала и эффективного использования информационно-коммуникационных технологий. Также выявляется важность проводимых реформ по модернизации школьной инфраструктуры и повышению интеллектуального и духовного

потенциала молодого поколения. Результаты исследования подтверждают, что совершенствование системы государственного образования является важным фактором социально-экономического развития страны.

Ключевые слова: государственное образование, система образования, концепция 2030, реформы образования, педагогический состав, качество образования, инновационные технологии, цифровое образование, международные стандарты, школьная инфраструктура, образование молодежи, современное образование, PISA, компетентностный подход, духовное воспитание.

DEVELOPMENT OF THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN UNTIL 2030

Annotation: This aricle analyzes the main directions, goals and objectives of the development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030. It covers the issues of improving the quality of education, introducing international standards, developing the skills of pedagogical personnel, and the effective use of information and communication technologies. It also reveals the importance of the reforms being implemented to modernize school infrastructure and increase the intellectual and spiritual potential of the younger generation. The research results substantiate that improving the public education system is an important factor in the socio-economic development of the country.

Keywords: public education, education system, 2030 concept, education reforms, teaching staff, quality of education, innovative technologies, digital education, international standards, school infrastructure, youth education, modern education, PISA, competency-based approach, spiritual education.

KIRISH

Ta’lim jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Har qanday davlatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi avvalo yosh avlodning bilim

darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ayniqsa, keyingi yillarda xalq ta’limi tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, xalqaro standartlarga moslashtirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda.

2030-yilgacha mo‘ljallangan xalq ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Mazkur konsepsiya ta’lim tizimining barcha bosqichlarini qamrab olib, maktab infratuzilmasini yaxshilash, raqamli ta’limni kengaytirish va xalqaro tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ta’lim sohasidagi islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. 2030-yilgacha O‘zbekiston xalq ta’lim tizimini rivojlantirish, yosh avlodni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash maqsadida bir qator strategik yo‘nalishlarni belgilash zarur.

O‘zbekiston xalq ta’lim tizimining asosiy maqsadi – ta’lim sifatini oshirishdir. Buning uchun o‘qituvchilarni malakasini oshirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va dars jarayonida zamonaviy metodlarni qo‘llash zarur. O‘quv dasturlarini yangilash, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish ham ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. 2030-yilga kelib, O‘zbekiston maktablarida raqamli ta’lim platformalari, masofaviy o‘qitish va interaktiv o‘quv materiallarini keng joriy etish zarur. Bu nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini osonlashtiradi, balki ularning kreativ fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Yoshlarni kasbga tayyorlash va ularning mehnat bozoriga mos keladigan ko‘nikmalarni olishini ta’minlash

muhimdir. Maktablarda kasbga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini joriy etish, amaliyot va stajirovkalar tashkil etish orqali o‘quvchilarni real hayot sharoitlariga tayyorlash lozim. Bu, o‘z navbatida, yoshlarning ish bilan ta’minlanish imkoniyatlarini oshiradi.

O‘zbekiston xalq ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish ham muhim vazifalardan biridir. Har bir bola, jumladan, nogironligi bo‘lgan bolalar ham sifatli ta’lim olish huquqiga ega. Maktablarda maxsus shart-sharoitlar yaratish, o‘qituvchilarni nogiron bolalar bilan ishlash uchun tayyorlash zarur.

O‘zbekiston xalq ta’lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish muhimdir. Buning uchun xorijiy mamlakatlar bilan ta’lim sohasida hamkorlikni kengaytirish, o‘zaro tajriba almashish va ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish zarur. Bu orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi global standartlarga mos kelishi mumkin.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimiga bo‘lgan talab yanada ortib bormoqda. Fan va texnologiyalarning tez sur’atlarda rivojlanishi yosh avloddan zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi. Shu sababli an’anaviy o‘qitish usullarini zamon talablari asosida takomillashtirish muhim vazifaga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limi tizimida uzoq yillar davomida ayrim muammolar mavjud edi. Jumladan, maktablarning moddiy-texnik bazasi yetarli darajada emasligi, o‘quv dasturlarining eskirganligi, pedagog kadrlar malakasining zamon talabiga to‘liq javob bermasligi kabi kamchiliklar ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu bois davlat tomonidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2030-yilgacha xalq ta’limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasida bir necha muhim yo‘nalishlar belgilangan. Birinchidan, ta’lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Xususan, PISA, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida O‘zbekiston o‘quvchilarining natijalarini yaxshilash maqsad qilib qo‘yilgan. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va amaliy bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Ikkinchidan,

o‘qituvchilarning malakasini oshirish va ularning ijtimoiy maqomini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki ta’lim sifatining asosiy omili bu – pedagog hisoblanadi. Shu sababli o‘qituvchilar uchun zamonaviy metodikalar bo‘yicha treninglar tashkil etish, ularning mehnatini rag‘batlantirish va moddiy ta’minotini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish rejalashtirilgan. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar yordamida chekka hududlardagi maktablarda ham sifatli ta’limni tashkil etish mumkin bo‘ladi. To‘rtinchidan, maktab infratuzilmasini yaxshilash muhim yo‘nalishlardan biridir. Yangi maktablar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, laboratoriyalar va zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim nafaqat bilim berish, balki barkamol avlodni tarbiyalash vositasi hamdir. Shu sababli 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlantirish konsepsiyasida yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ham katta e’tibor berilgan. O‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, bag‘rikenglik va mas’uliyat hissini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Bundan tashqari, o‘quvchilarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida turli fan olimpiadalari, tanlovlar va innovatsion loyihalar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu esa yoshlarning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish – bu nafaqat mamlakatning kelajagi, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning ham muhim omilidir. Ta’lim sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kasbga tayyorlash, inklyuzivlikni ta’minlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali O‘zbekiston kelajak avlodlarini zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta'minlab, ularni muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash imkoniyatiga

ega bo‘ladi. Bu jarayonlarda har bir fuqaroning ishtiroki va davlatning qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi mamlakat ta’lim sohasini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim strategik hujjatdir. Ushbu konsepsiya orqali ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini rivojlantirish hamda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash maqsad qilingan. Kelajakda mazkur islohotlarning samarali amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonning xalqaro ta’lim reytinglaridagi o‘rni mustahkamlanadi, bilimli va raqobatbardosh yoshlar soni ortadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-2707-son qarori. // «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2017 yil 9 yanvar, 1-son, 11-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-3261-son qarori. // «Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 11 sentyabrdagi 181 (6875)-soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to,g'risida"gi qarori.
4. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to,g'risida"gi qarori.
5. L.R.Mirjalolova Tanlov fani moduli T.: Iste'dod, 2018. - 223 b
6. Ksendzova, GF Maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda psixologik-

pedagogik yordam / GF Ksendzova // Yakutsk IPKRO nashriyoti, 2006 yil - S 146148